

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari  
materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024



**IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil “01” 08 dagi 277 — sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

T/r	MUNDARIJA	bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	8
3.	<b>Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.....</b>	9
4.	<b>Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo‘yiladigan talablar.....</b>	10
5.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	10
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	11
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	12

## **1. Umumiy tavsifi**

70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalar uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar.**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilar va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Tegishli mutaxassislik mavjud barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida, aksiyadorlik jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, jumladan: matbaa va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish, noshirlik ishi, matbaa mahsulotlari dizayni, matbaa mahsulotlarini ishlab chiarishni loyihalash va tashkil

“70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati” mutaxassisligi qilish, ishlab chiqarish, texnologik jihozlarni montaj qilish, sozlash va ishlatish va takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

davlat boshqaruvi va uning turli hududiy bo‘linmalari;

sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazlari;

to‘qimachilik, kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari sifatini nazorat qilish va ekspertizadan o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan mahsulot sifatini davlat va jamoat nazorati organlari;

mutaxassislik sohasi bo‘yicha texnologik, konstrukturlik va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalarini.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

loyihaviy-konstrukturlik faoliyati;

tahlil va nazorat faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirot etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatda:**

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha yangi yoki mavjud texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish loyihalarini ishlab chiqish;

xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni qayta ishslashning oqilona texnologik sxemalarini loyihalash;

to‘qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarish uchun yangi yoki modernizatsiya qilingan uskunalar, asbob-uskunalar va asboblarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirop etish;

ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar sifatini nazorat qilish tizimlari va vositalarini loyihalash;

belgilangan iste'mol xususiyatlariiga ega bo‘lgan to‘qimachilik, charm va mo‘ynali materiallarning yangi turlarini yaratishda ishtirop etish;

mahsulot sifatini yaxshilash uchun texnologik rejimlar va uskunalar parametrlarini ishlab chiqishda va optimallashtirishda qatnashish;

loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish va mahsulot sifatini nazorat qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaning;

#### **Tahlil va nazorat faoliyatda:**

to‘qimachilik va charm-mo‘ynali materiallar, yengil sanoatning tayyor mahsulotlari xossalari va sifatini har tomonlama tahlil qilish;

sinov natijalari va standartlar asosida mahsulot sifatini ekspert baholash va prognozlashni amalga oshirish;

xom ashyo, materiallar va mahsulotlar sifatini baholash uchun normativ-texnik hujjatlarni (standartlar, texnik shartlar, sinov usullari) ishlab chiqish;

zamonaviy usullar va nazorat vositalaridan foydalangan holda xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni sinovdan o‘tkazishni tashkil etish va o‘tkazish;

sinov natijalarini tahlil qilish, mahsulotning normativ talablarga muvofiqligini aniqlash;

mahsulot sifati va raqobatbardoshligi masalalari bo‘yicha korxona mutaxassislari bilan maslahatlashing;

mahsulot sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

sifatni nazorat qilish jarayonlari va ma'lumotlar tahlilini avtomatlashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash;

Materialshunoslik, ekspertiza va sifat nazorati sohasida patent qidiruvlarini o‘tkazish va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish;

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:**

to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarida mahsulot sifati uchun mas’ul bo‘limlar ishini tashkil etish va nazorat qilish;

sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish markazlari faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;

ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida sifat nazorati uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarni boshqarish;

sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish;

to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarida sifat nazorati xizmati ishini tashkil etish va boshqarish;

mahsulot sifatini boshqarishning samarali tizimlarini, shu jumladan usullar va nazoratni ishlab chiqish va joriy etish;

xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish, ekspertizadan o‘tkazish va sertifikatlashni rejalashtirish va tashkil etish;

#### **Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati**

to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;

yuqori sifatli mahsulotlarni ta’minlash uchun texnologik rejimlarni optimallashtirish va nazorat qilish;

ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

ishda xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash;

mahsulotning hayot aylanishining barcha bosqichlarida sifatni kafolatlash;

“70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati” mutaxassisligi materialshunoslik va sifatni baholash sohasida xizmatlar ko‘rsatish; mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish va sertifikatlash bo‘yicha laboratoriylar va markazlar ishini tashkil etish;

texnik hujjatlar va sifat nazorati qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilinadigan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

shaxsnинг inson, jamiyat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olish;

yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o‘z faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga ega bo‘lish, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon etish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat bilan yondashish;

kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida foydalana olish;

axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish;

o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish; ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

matbaa texnologiyasi va dizaynining ilmiy asoslari, ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari, turli korxonalarda ish jarayonini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lif muassasalarida to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

### **4. Ilmiy amaliyatga (tajriba orttirish) qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyat 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va

“70720703 – To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi, ekspertizasi va sifat nazorati” mutaxassisligi texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta’minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyatga yuborilgan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko‘zda tutiladi.

### **5. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>1-3</b>
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFO‘M1106	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	180	6	1
1.03	PTPM1306	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	2
1.04	ITNA1106	Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari	180	6	1
1.05	MSTXS1106	Mahsulot sifatini ta’minlash va xalqaro standartlashtirish	180	6	1
1.06	MSBIA1306	Mahsulot sifatini baholashning ilmiy asoslari	180	6	3
1.07	MICHTNA1208	Mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasining nazariy asoslari	180	6	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>1-3</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		Muhandis-texnolog, pedagog-tadqiqotchi			
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
3.01	ITIMDT3123438	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1140	38	1,2,3,4
3.02	IPI312314	Ilmiy-pedagogik ish	420	14	1,2,3
3.03	IA3408	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	240	8	4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	<b>1-4</b>

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura va bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, sifat nazorat, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**



Rektor M. Turabjanov akademik. S.M. Turabdjanov

202 yil « 13 » iyun

M.O.

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**



O'quv ishlari bo'yicha prorektor X.Kamilova

202 yil « 13 » iyun

M.O.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif,  
fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**



Direktor M.Boltaboyev

202 yil « 13 » iyun

M.O.

**Namangan to'qimachilik sanoati  
instituti**



Rektor Q.Xoliqov

2024 yil « 13 » iyun

M.O.

**"Bakan Tex" MCHJ**



Direktor R.Muxitdinov

202 yil « 13 » iyun

M.O.

**"Uztex Toshkent" MCHJ**



Direktor S.Mamajonov

202 yil « 13 » iyun

M.O.